



Iqtisodiy jinoyatlarning profilaktikasini takomillashtirish

**Tursunboyev Ulug'bek
Baxodir o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi
IIV akademiyasi 309 guruh kursanti*

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola orqali iqtisodiy jinoyatlar haqida va ularning profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar, ularning vazifalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Iqtisodiy jinoyatlar va boshqa turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda hamkorlikning ahamiyati, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari turlaridan samarali foydalanish orqali fuqarolarda huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ulardan jabranuvchi bo'lib qolishlik ehtimolini kamaytiruvchi huquqiy bilim, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar:

Iqtisodiy jinoyatlar, huquqbuzarlik, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy targ'ibot, huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi kodeksining maxsus qismi, uchunchi bo'limi Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga bag'ishlangan. Uchunchi bo'lim o'z ichiga X-XIII prim I boblarni qamrab olgan bo'lib, ushbu boblar quyidagicha nomlangan.

X bob. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish ;

XI bob. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar;

XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar ;

XIII bob. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar ;

XIII prim I bob. Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurutuvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar.

Ushbu turdagi jinoyatlar davlatimiz iqtisodiyoti, fuqarolarimizning huquq va erkinliklari va jamiyatimizning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish uni oldini olish yuzasidan davlat organlarining xizmati tufayli jinoyatchilikni kamaytirish va oldini olish borasida islohotlar amalga oshirilib kelinadi. Huquqbuzarliklarga qarshi kurash va oldini olishga qaratilgan ko'plab normativ huquqiy hujjatlarimiz mavjud bo'lib, ulardan biri 2014-yil 14-mayda qabul qilingan „Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida“gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonun yurtimizdagi barcha turdagi jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ularni oldini olish va profilaktikasini amlaga oshirish borasida huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pchilik fuqarolarimiz huquqbuzarlik va jinoyat borasidagi tushunchalarni farqlashda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishadi. Jumladan aksariyat fuqarolarimiz huquqbuzarlik deganda ma'muriy huquqbuzarliklarni ya'ni ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi g'yrihuquqiy qilmishni tushunishadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo'lib, unda huquqbuzarlik atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan ayibli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Ushbu qoidadan shuni anglash mumkinki huquqbuzarlik jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklardan keng tushuncha bo'lib, ularni o'z ichiga qamrab oladi. Demak, jinoyatni biz qo'rqmasdan huquqbuzarlik deyishimiz mumkin.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunda huquqbuzarliklarga qarshi kurashuvchi subyektlar mavjud. Biz ushbu subyektlarni mantiqan 3 turga ajratib olishimiz mumkin. Ular :

davlat dasturlarini ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydigan ushbu jarayonda ishtirok etuvchi organlar ;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi ;

huquqbuzarliklar profilaktikasida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar.

Fuqarolar, jamoat birlashmalari, jamoat tashkilotlari ham qonunchilikda belgilangan tartibda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etishlari mumkin. Davlat organlari, davlat tashkilotlari, muassasalari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolar bir maqsad yo'lida birlashib, yurtimizda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va bartaraf etishda o'z hissalarini qo'shishlari orqali kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga erishishimiz mumkin.

Iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashda profilaktikaning barcha turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunda qayd etilishicha huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Iqtisodiyor sohasidagi va boshqa turdagi huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirishda umumiy turdagi profilaktikadan foydalanish ancha samarali hisoblanadi. Aholi o'rtasida huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida eng samarali chora-tadbirlardan biri huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari hisoblanadi. Huquqiy targ'ibot va tashviqot orqali biz aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishimiz, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ulardan jabrlanuvchi bo'lib qolmasliklari uchun ularga huquqiy bilimlar berishimiz mumkin.

Tassavur qilib ko'raylik, mahalla hududida xizmat o'tayotgan profilaktika inspektori huquqiy targ'ibot orqali yuzlab fuqarolarga huquqiy bilimlar ulashishi, to'g'ri yo'nalishlar berishi mumkin. Huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda umumiy

profilaktika chora-tadbirlari bo'lmish huquqiy targ'ibot orqali oz vaqt ichida yuzlab fuqarolarga huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vauning oldini olish borasida ko'plab tavsiyalar va huquqiy bilimlar ulashish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki biz huquqbuzarliklarni aniqlab ularni fosh etishdan ko'ra huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va profilaktikasini amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq. Iqtisodiy sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda va profilaktikasini amalga oshirishda biz fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish orqali ularda iqtisodiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida imunitetni hosil qilgan bo'lamiz. Natijada esa biz turli iqtisodiy huquqbuzarliklarni firibgarlik, o'girlik va shu kabi ko'plab uchrayotgan huquqbuzarliklarni profilaktikasini amalga oshirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14- may
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16-sentyabr
4. Ichki ishlar organlari profilaktik paoliyati. Ma'ruzalar kursi, darslik.

Toshkent - 2018